Maqolalarga qo‘yiladigan talablar

«O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti xabarlari” jurnalida chop etiladigan maqolalarga qo‘yiladigan talablar:

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti mamlakatimizdagi san’at va madaniyat ta’limini rivojlantirish, ilmiy tadqiqot hamda ma’naviy-ma’rifiy jarayonlarda o‘sishga erishish maqsadida “O‘zDSMI xabarlari” ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnalini muntazam ravishda (yilda 4 marta) nashr ettirish yo‘lga qo‘yildi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi San’atshunoslik instituti, turdosh Oliy ta’lim muassasalari, hamkor tashkilotlar rahbarlaridan, hurmatli professor-o‘qituvchilardan, ilmiy tadqiqotchilardan ushbu jurnalda faol ishtirok etishlarini so‘raymiz.

Jurnalning yo‘nalishlari quyidagicha:
-Teatr va kino;
-Musiqa san’ati;
-San’at tarixi, falsafasi va nomoddiy madaniy meros;
-Pedagogika, psixologiya.

Maqolalarga qo‘yiladigan asosiy talablar:

1) Taqdim etilayotgan maqola jurnalning qaysi rukniga berilayotgani aniq ko‘rsatilishi lozim;

2) Maqolada konkret tadqiqot natijalariga qaratilgan fikr-mulohazalar taklif va xulosalar bo‘lishi kerak. Shuningdek, maqola stilistik, orfografik xatolardan holi hamda mantiqiy to‘g‘ri bo‘lishi shart. Maqoladagi faktlar uchun mualliflar javobgar bo‘lib, tahririyat mas’uliyatni o‘z zimmasiga olmaydi;

3) Maqolaning original bo‘lishi talab etiladi. Agar maqolada

plagiatlik aniqlansa, muallifning boshqa materiallari ham avtomatik ravishda qaytariladi. Bundan tashqari, material avval boshqa nashrda chop etilmagan bo‘lishi shart (boshqa nom bilan ham);

4) Muallifning ism, sharifi (otasining ismi), familiyasi, ilmiy unvoni, ilmiy darajasi, faoliyat ko‘rsatuvchi tashkilot nomi, elektron pochatasi (e-mail) va bog‘lanish uchun telefoni ko‘rsatilishi lozim;

5) Taqdim etilayotgan maqola A4 formatda bo‘lib, sahifaning hamma tomonidan 2 sm joy qoldirilishi, Microsoft Word-2003da Times New Roman yozuv turida, 14 kegl, 1,5 interval, 1 sm abzatsda bo‘lishi, 10 betdan (annotatsiya va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati bilan birga) oshmasligi kerak. Maqolaning nomi katta harflarda bo‘lishi kerak. Material elektron hamda qog‘oz variantda taqdim etilishi shart;

6) Maqolada 3 til (o‘zbek, rus, ingliz tillari)dagi annotatsiya (maqolaning qisqacha mazmuni)va kalit so‘zlar bo‘lishi talab etiladi. Annotatsiya 12 keglda 3-4 qator oralig‘ida bo‘lishi kerak. Kalit so‘zlar 8 ta bo‘lishi shart;

7) Adabiyotlar ro‘yxati maqolaning so‘ngida 10 tadan kam bo‘lmagan holda, ketma-ketligi alfavit tartibida bo‘lishi kerak. Havolalar matn ichida jumladan so‘ng, kvadrat qavs bilan berilshi kerak. Masalan [1.B.45]; Xorijiy adabiyotlar milliy adabiyotlardan keyingi o‘rinda, original nomda berishilishi kerak;

8) O‘ta zarur hollardagina rasm, chizma, jadval va formulalar berilishi mumkin. Rasm va chizmalar maqoladan alohida faylda yuborilishi va rasm tagiga izoh berilishi zarur. Rasmlar rangli va sifatli bo‘lishi talab qilinadi;

9) Qisqartma so‘zlar (abbreviaturalar) maqolada ko‘p takrorlanuvchi tayanch atamalarda hamda Xalqaro tashkilotlar nomida ishlatilishi mumkin. Dastlab ishlatilganda u to‘liq yozilishi, undan so‘ng qisqartmasi berilishi va keyingi

o‘rinlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri qisqartmasi ishlatilishi mumkin (Birlashgan Millatlar Tashkilot (BMT) kabi). Bir so‘zning qisqartmasi matnda 5 martadan ortiq bo‘lmasligi kerak;

10) Tahririyatga kelgan maqolalar anonim taqrizdan o‘tkaziladi (taqrizchiga bosim bo‘lmasligi uchun) va taqrizdan o‘tmagan maqolalar jurnalda bosilmaydi. Tahririyat maqolani qisqartirish, qayta ishlash huquqiga ega. Jarayon mualliflar bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi. Shu sababli e-mail hamda telefon raqamlar to‘g‘ri ko‘rsatilishi kerak. Tahririyat murojaatiga javob bermagan mualliflar materiali chop etilmaydi.

Tahririyat manzili:

Mirzo ulug‘bek tumani “Yalang‘och” dahasi, 127-A-uy. O‘zbekiton davlat san’at va madaniyat instituti Ilmiy-tadqiqot bo‘limi (Rektorat binosi, A2-7 xona).

Tel: 71-230-28-13